

## AXBOROT HURIJLARIGA QARSHI IMMUNITET SHAKLLANISHDA OILANING ROLI

Andijon davlat pedagogika instituteti  
Pedagogika fakulteti Psixologiya yo’nalishi  
Oxunjonova Sayyora

<https://doi.org/10.5281/zenodo.19409281>

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada yoshlarning axborot hurujlariga qarshi immunitetni shakllantirishda oilaning ta’siri haqida so’z yuritiladi. Yoshlar kelajak davomchilari, ularga ma’naviy- marifiy va axloqiy bilimlarni berish barchamizning burchimiz. Ammo eng asosiy vazifa yoshlarning ota-onalarining zimmasiga yuklanadi. Axborot huruhlariga qarshi ma’naviy immunitetini shakllanishida oila asosiy “QALQON “ bo’lib, ota- ona farzandlarida milliy qadryatlar, sog’lom dunyo qarash va tanqidiy fikrlashni yoshligidanoq tushuntirishi zarurdir.

**Kalit so’zlar:** Immunitet, axborot hurujlari, oila ta’siri, tanqidiy fikrlash, psixologik ta’sir.

### **Kirish**

Glaballashuv davrida zamon talabi bo’layotgan ijtimoiy tarmoqlar, yoshlarni o’z domiga tortib borayotgani hech kimga sir emas. Bunday vaziyatlarda ularning oilasi asosiy boshqaruvni o’z qo’liga oladi. Barcha ota-onalar ham farzandlari yetuk va barkamol bo’lib yetishini istaydi. Ammo bugungi zamon talabi deyilyotgan ijtimoiy tarmoqning salbiy tomonlari o’z ta’sirini ko’rsatmoqda. Ota - onalar tarmoqdan foydalanish yo’lini to’g’ri tushuntira olishlari va o’zlari ham namuna sifatida ko’rsata olishi ham mushkul vazifadir. Farzandlarga axborotni saralash, tahlil qilish va internetdagi tahdidlarga qarshi tura olish ko’nikmalarini o’rgatish zarur. Ogohlik - bu zamon talabidir.

### **Asosiy qisim**

Bugungi kunda ko’pchilik duch kelayotgan asosiy to’siq shundaki, ijtimoiy tarmoqning hayotimizga kiritgan ijobiy va salbiy oqibatlarini ko’pchilik insonlar hali toliq anglab yetmagan. Ming asfufki, Yoshi kattalar ham bundan mustasno emas. Jamiyat insonni shaxs bo’lib yetilishin taminlaydi. Eng kichik jamiyat esa oila. Hozirda zamon oldingidan ko’ra juda rivojlangan deya bemalol ayta olamiz, shu bilan birga oilalar ham. Zamonaviy oilaning asosiy vazifalaridan biri – farzandlarda axborotni saralash (seleksiya) qobiliyatini uyg’otish. Bundan tashqari, vaqtni to’g’ri taqsimlash: Gadgetlarga qaramlikni, ma’naviy immunitetning zaiflashtirishga to’sqinlik, oila davrasidagi jonli muloqotni va virtual dunyodagi "soxta qahramonlar" ta’sirini kamaytira olishlari zarur. Aqliy salohiyat va tajriba doim asosiy ahamyatga ega bo’lgan. Yoshga bog’liq bo’lgan ehtiyojlar ham faoliyatga ta’sir ko’rsatishi tabiiy. Inson nima bilan ko’proq faoliyat qilsa, dunyo qarashi va fikirlashi shu narsaga yo’naladi. Shuning uchun ham ota- onalar farzandlariga, media-savodxonlik: internetdan qanday foydalanishni, qaysi ma’lumot yolg’on (feyk) va qaysi biri haqiqat ekanligini farqlashni o’rgatishi lozim. Bola atrofdagilarni ko’rib, demak bu to’g’ri degan xulasaga kelib, ular qilgan noto’g’ri ishlarini o’zlashtirib o’zi amalyotda sinashidan oldin qaytarishimiz va to’g’ri yetkazib bera olishimiz zarur masala. Negaki, bola psixikasi nozik ya’ni unga biz tushuntirish mobaynida zarar yetkazib qo’yish holatlari ham kuzatilishi mumkin. Buni oldini olish, oilada erkin muloqotni taminlash va farzand tarbiyasiga yetarlicha e’tibor berishdir. Shu bilan birga o’zlari ham shu ko’rsatmalarga amal qilishlari darkor. Bundan tashqari ma’naviyat va milliy sharqona qadryatlar.

Ya’ni ijtimoiy tarmoqdagi g’arb mamlakatlarini an’analarini o’zlashtirib olmaslikni. Ular bizga mos emasligi aytish. Bu shunchaki yo’q dey olish emas, balki uni mohiyatini anglatish demakdir. Dinnimiz ham buni rad qilishini tushuntirish lozim. Shuning uchun bolalarga ham diniy

ham dunyoviy bilimlarni berish. Ularga oq va qorani anglatib qo’yga bilan tengdir. Shu bilan birga, e’tiqod tushunchasi ham bor. Oilada shakllangan mustahkam axloqiy prinsiplar tashqaridan kelayotgan buzg’unchi g’oyalarga (ekstremizm, axloqsizlik, loqaydlik) qarshi qalqon vazifasini o’taydi. Ba’zan insonda boshliqni to’ldirishga bo’lgan ehtiyojlar tufayli noto’g’ri ma’lumotlarni o’zlashtirish holatlari kuzatiladi. Ma’naviyatda bo’shliq bo’lmaydi. Agar oila farzandning ongi va qalbini sog’lom g’oyalar bilan to’ldirilsa, u bo’shliqni internetdagi "axborot chiqindilari" egallay olmaydi. Ma’naviy immunitet — bu bolani tashqi dunyodan butunlay uzib qo’yish emas, balki unga "axborot zaharlari"ga qarshi "antitanacha" (bilim va tafakkur) berishdir. "Axborot xavfsizligi — bu faqat texnik cheklov emas, balki tarbiya masalasidir.

Yuqorida takidlab o’tgan oqibatlardan saqlanish yo’li. Raqamli gigiyenga amal qilish: Ovqatlanish vaqtida yoki uyqudan oldin gadgetlardan foydalanmaslik an’anasini joriy etish. Ishonchli munosabat o’rnatish. Bola xato qilsa yoki shubhali saytga kirib qolsa, qo’rqmasdan sizga ayta olishini shakllantirish. Bularni amalga oshirish bilan birga bolaning vaqtni mazmunli o’tkazish: Farzandni sport, san’at yoki hunarga yo’naltirish orqali uni "axborot bo’shlig’i"dan asray olish darkor. Bularndan tashqari, bugungi kunda diqqat markaziga aylanishga ulgirgan su’niy intellektlar ham yaqol misoldir. Sun’iy intellekt davrida axborot xurujlari yangi, ancha murakkab ko’rinishga keldi. Endilikda oilada shakllantiriladigan ma’naviy immunitet nafaqat oddiy yolg’on xabarlariga, balki algoritmlar va neyrotarmoqlar tomonidan yaratilgan manipulyatsiyalarga ham qarshi tura olishi kerak. Bundan tashqari SI texnologiyalari ma’lumotlarni saralash va yetkazib berish tezligini oshirib yubordi. Bu esa oila zimmasiga yangi mas’uliyat yuklaydi. Bunga yaqqol misol Deepfake (Soxta tasvir va ovoz): bugun SI yordamida har qanday insonning qiyofasini yoki ovozini soxtalashtirish mumkin. Oila a’zolari farzandga ko’rgan va eshitgan har bir narsasiga darrov ishonib ketmaslikni, "ko’z bilan ko’rgan hamisha ham haqiqat emasligi"ni o’rgatishi zarur. Yana algoritmlar qurboni bo’lmaslik: Ijtimoiy tarmoqlar odamning qiziqishlarini SI orqali o’rganadi va unga faqat bir tomonlama ma’lumotlarni ko’rsata boshlaydi. Bu insonni "axborot pufagi" ichiga qamab qo’yadi. Shunday vaziyatda oila farzandga dunyoga turli nuqtai nazarlardan qarashni o’rgatishi lozim. SI yordamida yaratilgan "feyk" xabarlar insonning ta’sirchanligini aniqlab, aynan o’sha nuqtaga zarba beradi. Oilaviy ota-onalar farzandlari bilan ijtimoiy tarmoqlardagi shov-shuvli xabarlarining manbasini tekshirishni odatga aylantirishi kerak. "Bu xabarni kim tarqatdi?", "Bundan kim manfaatdor?" degan savollarni berish orqali bolada tanqidiy tahlil shakllanadi. Stiven Xoking su’niy inelekt haqida aytgan ta’rifini keltirish mumkin. “Su’niy intellektlar inson aqlini o’tmaslashtiruvchi manba” sifatida etirof etgani esa fikrimiz dalilidir. Sun’iy intellekt asrida oilaning roli — farzandni texnologiyadan qochirish emas, balki uni texnologiya ichida o’zligini yo’qotmagan holda yashashga tayyorlashdir. Ma’naviy immunitet — bu raqamli dunyodagi eng mukammal "antivirus" bo’lib, u aynan oila tarbiyasi orqali inson ongiga o’rnatiladi. Har ikkisi ham bir-biri bilan uzviy bog’liqdir.

### **Xulosa**

Bugungi globallashuv davrida inson ongi va qalbi uchun kurash keskin tus olmoqda. Axborot xuruji — bu shunchaki ma’lumot tarqatish emas, balki milliy qadriyatlarni yemiruvchi, yot g’oyalarni singdiruvchi va ijtimoiy beqarorlikni keltirib chiqaruvchi quroldir. Oila jamiyatning kichik bo’g’ini bo’lsa-da, u ma’naviy tarbiyaning birlamchi filtri hisoblanadi. Har bir ota-ona farzandini yetuk shaxs bo’ib yetishishini, yurtiga va oilasi munosib shaxs bo’ishin istaydi va bu tabiiy. Buni nafaqat ota-onalarbalki barchamiz hohlaymiz. Yurtimiz yoshlarini barkamol shaxs bo’ishi tarafdorimiz. Chunki yoshlar kelajak davomchilaridir. Ijtimoiy tarmoqlardan cheklab unga yetarlicha bilimni ham bera olmasak ham bo’lmaydi. Bolalarga taffakur qilishni, qilayotgan ishlarini oqibatlari qanday falokatlarga sabab bo’lishini ko’rsatib berish lozim. Ular bizni to’g’ri deb aytganlarimiznigina emas o’zlari anglaganlari bo’yicha ish qilsalar yakuni yaxshi bo’ladi.

Ammo bu jarayonga qadar ota-onalar ular bilan uzluksiz shug’ullanishi kerak. Balolarga aslida hayotda o’z o’rnini topishda nimalar muhimligini va nimalar bilan band bo’lsa oxiri qanday yakun topishini ko’rsata olishi kerakdir. Fikrimiz dalili sifatida Yaponiya davlatini ayta olamiz. Ushbu davlatda bolalarida yomon tomonga o’zgarish bo’sa va u bilan ishlar ham natija bermasa. Ota-onalar farzandlariga motosikel olib beradi. Ya’ni jamiyatga va atrofdagilarga zarar yetkazadigon insonni tarbiyalab voyaga yetkazishdan ko’ra. Uni yoq qilib boshqalarni asrash muhimroq deya fikrlashadi. Albatta, barchaga ma’lum jilovni ozgina bosh qo’yish ham butun bir podani tizginini qo’ldan boy berish hech gap emas deb.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Xaydarov F.I, Xalilova N.I. Umumiy psixologiya (darslik ) – Nizomiy nomidagi TDPU, T.: -2019.
2. Abdulmajidova.M. Rivojlanish psixologiyasi va differensial psixologiya (darslik) – Omadbek Print nashriyoti, A.: -2025.
3. G’oziyeva. E.G’ Shaxs psixologiyasi (darslik) – Toshkent : O’qtuvchi, 2010.
4. Davletshin M. Umumiy psixologiya ( darslik) – Toshkent : Fan , 2002.
5. Karimova V. Ijtimoiy psixologiya ( darslik) – Toshkent Fan va Texnologiya , 2012